

Surxondaryoda o'qituvchi va murabbiylar sharaflandi



Termiz shahridagi "Afruz" tantanalar saroyida 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan viloyatning asosiy bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Unda Surxondaryo viloyati ta'lim tashkilotlari mutasaddilari, ilg'or o'qituvchilar, tizimda samarali mehnat qilayotgan faxriy ustoz-murabbiylar ishtirok etdi.

Bayram tadbirida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimov ta'lim fidoyilarini bayram bilan samimiy tabriklab, Prezidentimizning O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi.

Viloyat rahbari kuni kecha Prezidentimiz Farmoniga asosan davlat mukofotlari bilan taqdirlangan o'qituvchi va murabbiylarga orden va medallarni tantanali topshirdi. Shuningdek, bir guruh fidoyi ustoz va murabbiylarga viloyat hokimining faxriy yorliq va sovg'alari topshirildi.

To'kin dasturxon atrofida bayramona o'tkazilgan tadbirda qiziqarli kontsert dasturi namoyish etilib, elimiz suygan san'atkorlar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, saxnalashtirilgan chiqishlar ustozlarga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)